

LIMON(CITRUS L.) KO'CHATNIKO'CHIRIBO'TQAZISH**Xudayorova S.I***Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi*

Dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4610-son qaroriga muvofiq akademik M.Mirzayev, nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida respublikada limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, yetakchi va zamonaviy resurstejovchi texnologiyalardan foydalanish asosida yuqori sifatli sanoat va eksportbop sitrus mevalari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida Uyushma tashkil etilgan. Bunda limon ko'chatlarining issiqxona va ochiq maydonda parvarish qilinadigan yangi navlarini yaratish, onalik ko'chatzorlarni tashkil etish, zararkunanda hamda kasalliklarga qarshi kurashish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Issiqxona sharoitidagi limon ko'chatlarini ko'chirib o'tqazish texnologiyasini ishlab chiqish.

Usul va uslublar: Issiqxonada yetishtirilayotgan limon ko'chatlarini ko'chirish bo'yicha mavjud manbaalarga tayangan holda o'rganishlar olib borildi.

Sitrus o'simliklarining ko'chatlari O'zbekistonning janubiy rayonlarida mart oyining ikkinchi yarmida, shimoliy rayonlarida esa aprel oyining birinchi yarmida ko'chirib o'tqaziladi. Ko'chatlarni erta kuzda - 15 sentyabr oyigacha ko'chirib o'tkazsa ham bo'ladi. Limon ko'chatlarini o'tkazish uchun issiqxona tuprog'i yaxshilab tekislandi hamda 50-60 sm chuqurlikda ishlanishi lozim. Bunda gektariga 60-80 t chirigan go'ng, 600 kg superfosfat va 150 kg kaliyli o'g'itlar solindi. Sitrus o'simliklarining ko'chatlari sog'lom va yaxshi rivojlangan bo'lishi zarur. Ko'chatlarni o'tkazishga 10-12 kun qolganida issiqxona tuprog'i to'la namiqquncha tomchilatib sug'orildi. Issiqxonada limon ko'chatlarini 3x4 m sxemasida o'tqazish ma'qul. Ko'chat o'tkazish joylari rejalangandan keyin 60 sm chuqurlikda o'ralar kovlandi. Issiqxonada limon ko'chatlarini 3x4 m sxemasida o'tqazish ma'qul. Ko'chat o'tkazish joylari rejalangandan keyin 60 sm chuqurlikda o'ralar kovlandi. Ko'chat o'tkazish paytida har qaysi chuqurga yana 10-15 kg chirigan go'ng, 100-150 g superfosfat va 50 g dan kaliy o'g'itlari solindi. Ildizlari yaxshi rivojlangan bir va ikki yillik limon ko'chatlarida 3-4 tagacha birinchi tartib novdalar bo'lishi, tanasining yo'g'onligi 0,7-0,8 sm, ikki yilliklarida esa ikkinchi tartib novdalari va tanasining yo'g'onligi kamida 1 sm bo'lishi shart. Ko'chatlarni birinchi yili bir-biridan 1 m oraliq bilan bir qatorga o'tkazish mumkin, bir yildan keyin ortiqcha ko'chatlarning hammasini kovlab olib, 15 mart oyidan 15 aprel oylarigacha yangi issiqxonalarda doimiy joyga o'tkazish kerak. Ko'chirib o'tqaziladigan o'simliklar tuprog'i bilan kovlab olindi. Ildizlar aylanasiidagi tuproq tarqalib ketmasligi uchun, ko'chatlar kovlab olishdan 3-4 kun oldin sug'oriladi. Issiqxonaning tuprog'i ishlangan sari ko'chat o'tqaziladigan chuqurlar qaziladi. Chuqurlarning birinchi qatori issiqxonaning

shimoliy devoridan 1 m uzoklikda, qatorlar o'rtasida 2 m oraliq qoldirib qaziladi. Ko'chatlar maxsus taxta yoki belkurak bilan chuqurga joylanadi. Ko'chat ildizlari aylanasidagi tuproq bilan chuqurning devori o'rtasidagi bo'shliqda oziq moddali aralashma to'ldiriladi va bu aralashma to'mtoq uchli qoziq bilan shibbalanadi. Chuqurni ko'mib bo'lgandan keyin, ko'chat tula namiqquncha chelak orqali sug'oriladi. So'ngra ko'chatlar atrofidagi tuproq tekislanib yumshatiladi va qatorning xar ikki tomonida suv egatlari ochiladi. Ko'chatlar bilan suv egatlari o'rtasida 30 sm oraliq qoldiriladi. Ko'chatlarni o'tkazib bo'lgandan keyin, ular yaxshi tutib ketishi uchun, yana bir marta sug'oriladi.



Xulosa: Sitrus o'simliklar 3 yillik bo'lguncha ko'chirib o'tkazilganida yaxshi tutib ketadi. Bundan kattaroq o'simliklar ko'chirib o'tkazilganida ularning ildizlari shikastlanadi, barglari qisman to'kildi, o'sishi orqada qoldi va bunday o'simliklar kechroq hosilga kirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI. *Scientific Impulse*, 1(2), 692-695.

2. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY (LAMIACEAE). *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 183-190.

3. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 85-89.

4. Baratjon o'g'li, Sayramov Fayzullo. "SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 10.11 (2022): 85-89.

5. Baratjon o'g'li S. F. et al. SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES // *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 85-89.

6. Baratjon ogli, S. F. (2022). MEDICINAL PLANTS AND THEIR BIOLOGICAL PROPERTIES. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 76-82.

7. Baratjon ogli, S. F. (2022). ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE FAMILY LAMIACEAE. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(13), 839-845.

8. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). DORIVOR ISSOP O 'SIMLIGINING YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI VA SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 14(1), 50-53.

9. Mashrabovich, H. M., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). MELISSA OFFICINALIS L O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH USULI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(18), 18-20.

10. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEA OILA VAKILLARINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(13), 41-43.

11. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(24), 472-479.

12. Baratjon ogli, S. F. (2022). REPRESENTATIVES OF THE LAMIACEAE FAMILY PRODUCE ESSENTIAL OILS AND MEDICINAL AND HERBAL REMEDIES CONTAINING MONOCYCLIC MONOTERPENES. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 267-271.

13. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). FEATURES OF THE GENUS LAMIACEAE FAMILY, WHICH WE KNOW AND DO NOT KNOW ABOUT. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 87-90.

14. Baratjon ogli, S. F. (2022). ЛЕКАРСТВЕННЫЕ РАСТЕНИЯ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 83-90.

15. Yusupova, Z. A., Baratjon ogli, S. F., & Laziz ogli, A. M. (2022). ЖИЗНЕННЫЕ ФОРМЫ, МОРФОЛОГИЯ И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА ГУБОЦВЕТНЫХ. *Scientific Impulse*, 1(4), 452-458.